

## ONA TILI O‘QITISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK VA NAZARIY ASOSLARI

**Ro‘zimamatova Nafisa**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Shafaotova Sevara**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kun ta‘lim jarayonining dolzarb mavzusi, ya‘ni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarga an‘anaviy usulda emas, balki zamonaviy, innovatsion metodlar yordamida mavzularni yoritib berish haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, ona tili darslarining didaktik va nazariy asoslari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompyuter savodxonligi, elektron manba, globallashuv, nutq o‘stirish, innovatsiya, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetentlik.

O‘zbekiston Respublikasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ta‘lim muassasalarida joriy etish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shunga binoan ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta‘lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashlashtirish bo‘yicha hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning umumiy qoidalaridan biri bo‘lgan “Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida, qolaversa, o‘quvchi-yoshlarni ma‘naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma‘rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish orqali o‘quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda”. Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborotkommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Inson tarbiyasida maktab ta‘limining

ahamiyati kattadir. Prezidentimizning “mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz”, – degan mulohazalaridan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu sababli maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini ham hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi. Ma’lumki, har bir shaxsning ma’naviy kamoloti unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni shakl va metodlariga bog‘liqdir. Shu boisdan ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik talqin qilish, uning samarali kechishini ta’minlash zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz tomonidan milliy, o‘ziga xos yondashuv tarzi belgilab berildi.

“Ta’lim – O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik, faollikni baxsh etadi. O‘zib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatni tushunib yetish boshlanadi”. Buning uchun kichik maktab yoshidagi (1–4- sinflar) o‘quvchilarini tarbiyalashda ta’limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, internet bo‘yicha ilk elementar tushunchalar berish lozim bo‘ladi. Ana shunday texnologiyalaridan biri texnika vositalaridir. Texnika vositasini ta’lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Bunday ta’lim manbalariga elektron darsliklar, qo‘llanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, internet materiallari, axborot-resurs markazlari kiradi. Texnika vositasining bir qancha ta’riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, multimedia (inglizcha-yunoncha “multimedia” – “ko‘p vositalilik”) bu – axborot informatsiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo‘lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo‘ladi. Multimediaga ega kompyuterlar, odatda kuchli videotizimga, videomagnitafon va videokameralarni ko‘rish imkoniyatiga, tasvirni ushlab va axborotlarni rangli grafika, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar kabi turli ko‘rinishlari bilan ishlash imkoniyatidir. Globallashuv – insoniyatning ongi, shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u

chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin olishi, birinchi navbatda davlatning intellektual salohiyati, yosh avlod ta’limtarbiyasi va umuman zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog‘liqdir. Respublikamiz ta’lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodga ta’limtarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o‘z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi chuqur bilimlar talab etuvchi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitlarida mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, kasbiy mahorat cho‘qqilarini egallashga qodir va kasbiy moslashuvchanlik xislatlariga ega bo‘lgan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini ilm-fanning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tashkil etishni, zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqoralik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz ekan, zero jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatning barpo etilishiga xizmat qilish asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir. Shuningdek, “Barkamol avlod yili” davlat dasturida mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarda “... ta’lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarni keng joriy etish va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilash, samarali tizimni yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd qilindi”. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. O‘qish va nutq o‘stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o‘quvchilarga muayyan bilim beriladi. O‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirib borish bilan bir qatorda o‘quvchilarni ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi

ham diqqat markazida bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish darslari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'la boradilar va ularda kitobga muhabbat tuyg'usi uyg'otiladi. Mazkur jarayonning sifatli va samarali amalga oshirilishi bevosita o'qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bog'liqdir. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o'rganish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qish darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda pedagogik mahoratini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash muammolarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni takomillashtirishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. Chunki innovatsion ta'lim texnologiyalari birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta'lim jarayonida qo'llash – Pedagogik ta'lim. 2001-yil 2-son. 67-73-betlar.

2. Begmatova H. Bog'cha bolalarida multimedia texnologiyasi tushunchalarini shakllantirish – Xalq ta'limi 2010-yil 2-son. 50-55-betlar.

3. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: Fan va texnologiya, 2009-b. 348

4. Tayloqov N.I. Olimov A.F. Elektron darsliklar o'qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida xalq ta'limi, 2009-yil 1-son. 49- 50-bet.